# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-fevral)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalari tomonidan 2541,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylaridaga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 105,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,2 %) ni tashkil etdi.




***B***– *Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,7 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 33,0 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 36,9 % ga va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 25,5 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

*yanvar-fevral oylarida*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,4 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

### Ohak tosh




### Gaz kondensati




### Tabiiy gaz




### Tabiiy qum




### Chaqiq tosh



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohak tosh, *ming t.* | 41,6 | 28,8 | -12,8 |
| Tabiiy qum, *ming t.* | 61,0 | 32,3 | -28,7 |
| Tabiiy gaz, *mln. kub.m.* | 452,6 | 348,5 | -104,1 |
| Gaz kondensati, *ming t.* | 18,6 | 17,4 | -1,2 |
| Chaqiq tosh, *ming t.* | 31,3 | 19,4 | -11,9 |

**Ishlab chiqaradigan sanoat**

*yanvar-fevral oylarida*




2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2139,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,2 % ini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 69,7 % (70,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,3 % (2,9 %) va quyi texnologiyalisi 27,9 % (25,9 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 58,5 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 105,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,9 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 138,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,1 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 9,3 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 2,2 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (26,0 % ), 1,1 ming tonna tozalangan guruch (27,6 %) 41,2 ming tonna portlandsement (15,3 % ) va 2,0 ming tonna kalava ip (0,9 % ) ishlab chiqarilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** *t.* | 8767,8 | 2510,0 | -6257,8 |
| **Aroq,** *ming litr 100 % li spirt* | 596,2 | 689,3 | 93,1 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *t.* | 1991,0 | 1973,5 | -17,5 |
| **Polietulen,** *ming t.* | 61,2 | 61,4 | -0,2 |
| **Polipropilen,** *ming t.* | 16,9 | 15,8 | -1,1 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-fevral oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 382,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,0 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 33,0 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 702,8 | 829,5 | 126,7 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 10,4 | 20,0 | 9,6 |
| **Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar,** *mlrd. so'm* | 25884,4 | 31486,0 | 5601,6 |

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**







Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo'qotish, transport-tirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** *mln. so'm* | 996,3 | 1040,7 | 44,4 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar**, *mln. so'm* | 2014,2 | 2455,0 | 440,8 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar,** *mln. so'm* | 5535,7 | 7359,9 | 1824,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 33,0 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 4,4 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 21,9 % ga oshganligi kuzatildi.

**Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 304,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,9 % (2020- yil yanvar-fevral oylarida 7,9 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqa-rilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,8 % ni, shuningdek, Xo‘jayli tumani 10,7 % ni, Beruniy tumani 8,9 % ni, Qonliko‘l tumani 8,5 % ni hamda To‘rtko‘l tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (103,3 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Taxiatosh (124,4 %), Bo‘zatov (122,4 %), Chimboy (113,2 %), Kegeyli (111,1 %), Shumanay (111,1 %) hamda Mo‘ynoq (108,8 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 304,2 | 100 | 103,3 |
| Nukus | 4,7 | 1,5 | 100,8 |
| Amudaryo | 18,2 | 6,0 | 101,9 |
| Taxiatosh | 23,3 | 7,7 | 124,4 |
| Beruniy | 27,0 | 8,9 | 100,3 |
| Taxtako‘pir | 19,6 | 6,4 | 103,5 |
| Bo‘zatov | 1,7 | 0,6 | 122,4 |
| To‘rtko‘l | 24,9 | 8,2 | 100,1 |
| Qonliko‘l | 25,9 | 8,5 | 102,9 |
| Xo‘jayli | 32,5 | 10,7 | 100,1 |
| Qorao‘zak | 4,4 | 1,4 | 103,7 |
| Chimboy | 21,3 | 7,0 | 113,2 |
| Kegeyli | 6,2 | 2,1 | 111,1 |
| Shumanay | 4,8 | 1,6 | 111,1 |
| Qo‘ng‘irot | 16,2 | 5,3 | 100,1 |
| Ellikqal'a | 12,9 | 4,2 | 101,0 |
| Mo‘ynoq | 3,4 | 1,1 | 108,8 |
| Nukus sh. | 57,2 | 18,8 | 98,1 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 19,2 %, shuningdek, Taxiatosh 10,3 % ni, Qonliko‘l 10,2 % ni, To‘rtko‘l va Xo‘jayli 8,3 % ni hamda 7,8 % ni Taxtako‘pir tumanlari tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘zatov (149,7 %),Taxiatosh(140,1 %), Kegeyli (134,8 %), Taxtako‘pir (129,1 %), Qorao‘zak (128,7 %), Shumanay (128,1 %), Chimboy (119,1 %) va Qonliko‘l (118,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 212,8 | 100 | 106,7 |
| Nukus | 3,4 | 1,6 | 115,7 |
| Amudaryo | 10,6 | 5,0 | 81,8 |
| Taxiatosh | 21,9 | 10,3 | 140,1 |
| Beruniy | 15,9 | 7,5 | 103,7 |
| Taxtako‘pir | 16,5 | 7,8 | 129,1 |
| Bo‘zatov | 1,4 | 0,7 | 149,7 |
| To‘rtko‘l | 17,7 | 8,3 | 96,6 |
| Qonliko‘l | 21,6 | 10,2 | 118,4 |
| Xo‘jayli | 17,8 | 8,3 | 101,2 |
| Qorao‘zak | 3,4 | 1,6 | 128,7 |
| Chimboy | 15,2 | 7,0 | 119,1 |

**Kegeyli**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 4,6 | 2,2 | 134,8 |

**Shumanay**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 3,2 | 1,5 | 128,1 |

**Qo‘ng‘irot**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 8,4 | 3,9 | 71,1 |

**Ellikqal'a**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 7,4 | 3,5 | 82,9 |

**Mo‘ynoq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 2,9 | 1,4 | 112,7 |

**Nukus sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 40,9 | 19,2 | 102,0 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 17,8 %, shuningdek, Xo‘jayli tumani 16,1 % ni, Beruniy tumani 12,2 % ni, Qo‘ng‘irot tumani 8,5 % ni, Amudaryo tumani 8,3 % ni, To‘rtko‘l tumani 7,9 % ni hamda Chimboy tumani 6,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika (96,3 %) o‘sish sur’atidan yuqori ko‘rsatkich Qo‘ng‘irot (177,3 %), Amudaryo (155,7 %), Ellikqal’a (143,7 %), To‘rtko‘l (109,8 %), va Chimboy (100,8 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

**Qoraqalpog‘iston Resp.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 91,4 | 100 | 96,3 |

**Nukus**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1,3 | 1,5 | 76,0 |

**Amudaryo**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 7,6 | 8,3 | 155,7 |

**Taxiatosh**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1,4 | 1,6 | 45,7 |

**Beruniy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 11,1 | 12,2 | 95,9 |

**Taxtako‘pir**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 3,1 | 3,3 | 50,0 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Bo‘zatov | 0,3 | 0,3 | 65,6 |
| Qonliko‘l | 4,3 | 4,7 | 62,2 |
| Qorao‘zak | 1,0 | 1,0 | 60,5 |
| Kegeyli | 1,6 | 1,8 | 74,5 |
| Qo‘ng‘irot | 7,8 | 8,5 | 177,3 |
| Mo‘ynoq | 0,5 | 0,5 | 90,0 |
| To‘rtko‘l | 7,2 | 7,9 | 109,8 |
| Xo‘jayli | 14,7 | 16,1 | 98,7 |
| Chimboy | 6,1 | 6,7 | 100,8 |
| Shumanay | 1,6 | 1,8 | 87,5 |
| Ellikqal'a | 5,5 | 6,0 | 143,7 |
| Nukus sh. | 16,3 | 17,8 | 89,4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1536,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 60,5 % ni tashkil etdi.

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 2541,0 | 100 | 105,0 |
| Amudaryo | 69,0 | 2,7 | 107,5 |
| Beruniy | 86,9 | 3,4 | 114,2 |
| Bo‘zatov | 33,2 | 1,3 | 112,4 |
| Qonliko‘l | 71,0 | 2,8 | 110,4 |
| Qorao‘zak | 25,8 | 1,0 | 86,4 |
| Kegeyli | 50,0 | 2,0 | 105,7 |
| Qo‘ng‘irot | 74,9 | 2,9 | 63,5 |
| Mo‘ynoq | 7,5 | 0,3 | 173,4 |
| Nukus | 36,8 | 1,4 | 95,7 |
| Taxiatosh | 342,2 | 13,5 | 125,8 |
| Taxtako‘pir | 29,3 | 1,2 | 107,8 |
| To‘rtko‘l | 60,8 | 2,4 | 100,5 |
| Xo‘jayli | 75,2 | 3,0 | 106,0 |
| Chimboy | 45,2 | 1,8 | 156,1 |
| Shumanay | 5,5 | 0,2 | 106,3 |
| Ellikqal'a | 25,4 | 1,0 | 105,7 |
| Nukus sh. | 1502,3 | 59,1 | 103,6 |

(Amudaryo jadvalida ustun sarlavhalari: "Mlrd. so‘m", "Ulushi % da", "O‘sish sur’ati".)

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o‘sishshini, Mo‘ynoq (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 173,4 %), Chimboy (156,1 %), Taxiatosh (125,2 %), Beruniy(114,2 %), Bo‘zatov (112,4 %), Qonliko‘l (110,4 %) hamda Taxtako‘pir (107,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o‘sganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da***

**Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da**




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishi Qo‘ng‘irot tumanida (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 63,5 %), Qorao‘zak (86,4 %) hamda Nukus (95,7 %) tumanlarida pasayishi kuzatildi.

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 59,1 % ), Taxiatosh (13,5 %), Beruniy(3,4 %), Xo‘jayli (3,0 %), Qo‘ng‘irot (2,9 %) va Qonliko‘l (2,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Eng past ko‘rsatkich esa Shumanay (0,2 %), Mo‘ynoq (0,3 %), Qorao‘zak hamda Ellikqal'a (1,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (4668,5 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 4606,1 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (1329,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 159,2 ming so‘m bo‘lgani holda, Qonliko‘l tumanida – 505,2 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida – 485,6 ming so‘mni, Taxiatosh tumanida 313,6 ming so‘mni, Xo‘jayli tumanida – 263,2 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, ming so‘m*

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 1329,6 | 159,2 |
| Nukus | 726,4 | 92,9 |
| Amudaryo | 344,5 | 90,9 |
| Taxiatosh | 4606,1 | 313,6 |
| Beruniy | 450,2 | 140,0 |
| Taxtako‘pir | 726,1 | 485,6 |
| Bo‘zatov | 1536,8 | 78,0 |
| To‘rtko‘l | 281,5 | 115,2 |
| Qonliko‘l | 1384,1 | 505,2 |
| Xo‘jayli | 609,2 | 263,2 |
| Qorao‘zak | 487,0 | 82,8 |
| Chimboy | 400,5 | 188,8 |
| Kegeyli | 687,3 | 85,8 |
| Shumanay | 96,6 | 85,8 |
| Qo‘ng‘irot | 572,6 | 123,5 |
| Ellikqal'a | 157,9 | 80,3 |
| Mo‘ynoq | 234,1 | 106,2 |
| Nukus sh. | 4668,5 | 177,7 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 413,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,3 % ni tashkil etdi.






Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo‘ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kegeyli (88,9 %),To‘rtko‘l (88,6 %), Beruniy (86,1 %) hamda Xo‘jayli (73,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nukus shahriga (3,2 %) hamda Bo‘zatov (5,1 %), Taxiatosh (7,0 %), Qonliko‘l (9,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1 mart holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda respublikada 2984 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1213 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 40,6 %) Nukus shahriga 609 tasi (20,4 %), To‘rtko‘l 320 tasi (10,7 %), Beruniy 284 tasi (9,5 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.

| **Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda*** | **Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda*** |
|---|---|




2021- yil yanvar-fevral oylarida respublikada 131 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 69 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 52,7 %) Nukus shahrida 28 tasi (21,4), Amudaryo 16 tasi (12,2 %), Ellikqal'a 14 tasi (10,7 %), Beruniy 11 tasi (8,4 %), tumanlarida tashkil etildi.

**Qoraqalpog’iston Respublikasi statistika boshqarmasi sanoat statistikasi bo’limi** *Tel.: (61) 224-92-08*